МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ В РАМКАХ РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА.....	806
Ахмедова Нилуфар Шукратовна, Курбонбекова Мохичехра Туробжоновна	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURCHILIGI USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	819
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
TOVARLAR VA XIZMATLARNI TABAQALASHTIRISH STRATEGIYASINING XUSUSIYATLARI	825
Sodiqov Miraxror Abbos o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHDA XAVF-XATARLARNI BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	830
Saidova Sevaraxon Abdumo'min qizi	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR SANOAT SEKTORIDA SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI YASHIL MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	834
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОСТИ ЭКСПОРТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ	838
Бобоев М. Р.	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ УСТОЙЧИВО-ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ ПРАКТИК SMART TOURISM ДЛЯ КУЛЬТУРНО-ИСТОРИЧЕСКИХ РЕГИОНОВ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)	844
Усманова Азиза Баходировна	
ENERGY MANAGEMENT STRATEGIES FOR HYBRID ELECTRIC VEHICLES: A COMPREHENSIVE REVIEW.....	849
Asretdinova L.J., Gulnora Sh.Y.	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	864
B.Q. Madartov	
SINXRON GENERATORNING O'Z-O'ZIDAN CHAYQALISH JARAYONINI TAHLIL QILISH	867
Bekishev Allabergen Yergashevich, Zayniyeva Oliyaxon Egamberdiyevna, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Samadov Ilyos Azamat o'g'li	
SUG'URTA SOHASINING IQTISODIY-HUQUQIY MOHIYATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI: NAZARIY ASOSLAR, MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR	875
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
YANGI O'ZBEKISTON – UCHINCHI RENESSANS: CHORVACHILIKDA XALQ VETERINARIYASI XIZMATI TARIXI.....	880
Sayfudinova Djamila Badridinovna	



YANGI O‘ZBEKISTON – UCHINCHI RENESSANS: CHORVACHILIKDA XALQ VETERINARIYASI XIZMATI TARIXI

Sayfudinova Djamila Badridinovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

E-mail: jamilasayfudinova@gmail.com

ORCID: 0009-0009-6092-0398

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida Uchinchi renessans poydevorini barpo etishga qaratilgan vazifalardan kelib chiqib, tariximizning hali yetarli o‘rganilmagan sahifalariga yosh veterinariya mutaxassislarning qiziqishini uyg‘otish masalalari yoritiladi. Shuningdek, yurtimiz tarixida mavjud ma‘naviy merosni chuqur o‘rganish asosida ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda qadimdan chorvachilik sohasi rivojlangan xalqimizning boy tarixini chuqur tadqiq etish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: xalq veterinariya xizmati tarixi, Uchinchi renessans poydevori, “Avesto”, qo‘lyozma manbalar, veterinariya (baytarlik), ot kasalliklari, yilqichilik, chorvachilik, chorvachilikda ofat keltirgan kasalliklar, chorvador, hayvonlarning nomi va turlari, ularning qiliqlari va fe‘li, veterinariya va tibbiyotda qo‘llaniladigan o‘xshash dorivor vositalar.

Abstract. This article is based on the objectives set within the framework of the new development strategy of Uzbekistan aimed at creating the foundations of the Third Renaissance. The study highlights the importance of stimulating the interest of young veterinary specialists in the still insufficiently explored pages of national history. Particular attention is paid to educating them in the spirit of patriotism through a deep study of the spiritual heritage of our country, as well as to conducting an in-depth analysis of the rich history of the Uzbek people, in which animal husbandry has developed since ancient times.

Keywords: history of the national veterinary service, foundations of the Third Renaissance, Avesta, manuscript sources, veterinarian (baytar), horse diseases, horse breeding, animal husbandry, diseases that caused disasters in livestock farming, livestock breeder, names and types of animals, their habits and behavior, medicinal substances used in both veterinary medicine and human medicine.

Аннотация. Данная статья основана на задачах, поставленных в рамках новой стратегии развития Узбекистана, направленной на создание основы Третьего Ренессанса. В работе рассматриваются вопросы пробуждения интереса молодых ветеринарных специалистов к малоизученным страницам нашей истории. Особое внимание уделяется воспитанию молодежи в духе патриотизма на основе глубокого изучения духовного наследия нашей страны, а также всестороннему исследованию богатой истории народа, у которого животноводство развивалось с древних времен.

Ключевые слова: история народной ветеринарной службы, основание Третьего Ренессанса, «Авеста», рукописные источники, ветеринар (байтар), болезни лошадей, коневодство, животноводство, болезни, вызывавшие эпидемии в животноводстве, скотовод, названия и виды животных, их повадки и характер, лекарственные средства, применяемые как в ветеринарии, так и в медицине.



KIRISH

Yoshlarni yetuk mutaxassis va komil insonlar darajasida tarbiyalashda tarixning o'рни beqiyosdir. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yetti ustuvor yo'nalish hamda yuzta maqsaddan iborat dolzarb vazifalar belgilangan. Mazkur strategiyada O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirishga qaratilgan 77-maqsad vazifalari xalqimiz tarixining kam o'rganilgan sahifalarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga alohida e'tibor qaratadi.

Yurtimiz tarixining ana shunday kam, deyarli o'rganilmagan sahifalaridan biri — O'zbekiston chorvachiligi rivojida veterinariya xizmatining shakllanishi va taraqqiyoti tarixidir¹.

Vatanimiz tarixini manbalar asosida ilmiy jihatdan xolisona o'rganish jarayonida har bir sohaning, jumladan chorvachilik rivojlangan xalqimizning veterinariya tarixini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa soha vakillarini, xususan veterinariya mutaxassislarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, veterinariya va tibbiyot qadimdan o'zaro uyg'un holda shakllanib rivojlangan. Ko'plab tarixiy manbalarda qadimgi chorvador ajdodlarimiz ushbu sohada katta tajriba va mahoratga ega bo'lganligi qayd etilgan. Zero, anglash, ya'ni o'zlikni anglash jarayoni tarixni o'rganishdan boshlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qadimgi O'zbekiston hududi (Sug'd, Buxoro, Xorazm) hamda umuman Markaziy Osiyoda veterinariya xizmatlari tarixiga oid ma'lumotlar turli tarixiy manbalarda uchraydi.

Abu Ali ibn Sino (Avitsenna)ning mashhur "Tib qonunlari" asarida turli kasalliklar, dorivor vositalar hamda chorva sog'lig'i bilan bog'liq ayrim tavsiyalar keltirilgan. Ushbu asarda hayvonlar bilan ishlash va ularni davolashga oid ayrim amaliy maslahatlar ham uchraydi.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida dorivor o'simliklar va dori vositalari haqida muhim ma'lumotlar keltirgan bo'lib, ularda chorva kasalliklari bilan bog'liq ayrim tavsiflar ham mavjud.

Temuriylar davri manbalari, jumladan "Zafarnoma" va "Boburnoma" asarlarida chorvachilik, ot parvarishi, naslchilik hamda veterinariya amaliyotiga oid tarixiy ma'lumotlar uchraydi. Ushbu manbalarda hayvonlarni parvarishlash, ulardan harbiy va xo'jalik faoliyatida foydalanish hamda ularning sog'ligini saqlash bilan bog'liq tajribalar tasvirlangan.

Shu bilan birga, qayd etish lozimki, ushbu olimlar merosida veterinariya tibbiyoti alohida mustaqil fan sifatida emas, balki chorvachilik, tabobat va dorivor vositalardan foydalanish doirasida yoritilgan. Qadimgi Markaziy Osiyo sharoitida veterinariya sohasiga oid mustaqil yozma manbalar nisbatan kam uchraydi. Shu sababli tarixchilar ushbu yo'nalishdagi ma'lumotlarni qishloq xo'jaligi, tabobat va madaniy merosga oid umumiy tarixiy manbalar asosida tiklaydilar.

Markaziy Osiyo arxeologiyasi va qadimgi turmush tarzi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan fransuz olimi Klod Rapen ham o'z ilmiy izlanishlarida mintaqa aholisi hayoti, jumladan chorvachilik va u bilan bog'liq madaniy jihatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada O'zbekiston hududida qadimdan hayvonlarni xonakilashtirish, chorvachilik hamda dastlabki xalq veterinariyasi xizmatining vujudga kelish jarayonlari tarixiy manbalar asosida o'rganildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, zamon va makon tamoyillari, abstrakt fikrlash, monografik hamda mantiqiy yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida chorvachilik va veterinariya faoliyatining tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda xalq tabobati bilan bog'liq jihatlari kompleks tarzda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ayrim manbalarda go'yoki veterinariya sohasi O'zbekiston hududida Rossiya imperiyasi davrida shakllanib, keyinchalik sobiq sovet davrida rivojlangan degan fikrlar uchraydi. Biroq tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xalqimiz qadim zamonlardan boshlab uy hayvonlarini turli kasalliklardan asrash, chorvachilik va yilqichilikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Bu holat xalqimizning bebaho ma'naviy merosida, xususan qadimiy yozma manbalarda, ayniqsa "Avesto" asarida o'z aksini topgan. Mazkur manbada chorva va uy hayvonlarini xavfli kasalliklardan saqlash, ularni to'g'ri parvarish qilish hamda chorvachilik bilan shug'ullanish uchun malakali va mehr qo'ygan kishilarni tanlash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

zarurligi ta'kidlanadi. Ya'ni chorva taqdirini bu kasbni sevgan va mas'uliyat bilan yondashadigan insonlarga ishonib topshirish lozimligi qayd etiladi.

“Avesto”ning “Yasna” qismida Ahura Mazda tomonidan chorva egalari uchun erkin hayot va erkin faoliyat yuritish imkoniyati yaratilishi haqida fikrlar bayon etiladi. Shuningdek, unda chorva, ayniqsa sigirlar podasi, sernasl qo'ylar, tuyalar hamda yangi sog'ilgan sut kabi ne'matlar inson hayotining muhim farovonlik manbai sifatida tasvirlanadi.

Xalqimizning qadimiy muqaddas manbalaridan biri bo'lgan “Avesto”da chorva mollari va ularning mahsulotlari haqida yuqori baho berilib, chorvachilik jamiyat farovonligining asosiy omillaridan biri sifatida ulug'lanadi. Mazkur asarda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi haqida ham muhim ma'lumotlar beriladi. Unda qadimgi jamiyat asosan chorvadorlar va dehqonlardan tashkil topganligi, dastlab chorvachilik rivojlanib, keyinchalik dehqonchilik taraqqiy etgani ta'kidlanadi.

Manbalarda chorva boyligi jamiyatning muhim iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida talqin qilinib, ko'plab podalar, qoramollar, qo'y-echkilar, otlar va tuyalar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, ularni sog'lom saqlash, ko'paytirish, toza yaylovlar bilan ta'minlash kabi masalalar alohida e'tirof etiladi.

Shu tariqa, tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'lkamizda chorvachilikni rivojlantirish va uni turli kasalliklardan himoya qilishga qaratilgan dastlabki veterinariya amaliyoti qadim zamonlardan boshlangan. Bu jarayon yozma manbalar paydo bo'lishidan ham ancha avval shakllangan bo'lib, keyinchalik xalq tabobati va veterinariya tajribalarining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, aholining eng nufuzli tabaqalariga mansub kishilar odamlar va hayvonlarni davolashda bir xil dorivor vositalardan foydalanish hamda o'xshash tashxis qo'yish usullarini qo'llaganlar. Chorvachilikka katta zarar yetkazgan xavfli kasalliklarning oldini olish, ularni davolash usullarini boshqa hudud va mamlakatlarga yoyish zarurati vujudga kelgan. Shu sababli katta chorva podalariga ega bo'lgan mulkdorlar va davlat hukmdorlari veterinariya amaliyoti hamda davolash usullari bayon etilgan ilmiy-amaliy adabiyotlarni keng tarqatishdan manfaatdor bo'lganlar.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan qo'lyozma manbalar orasida veterinariya sohasiga oid o'nlab asarlar mavjud. Biroq ushbu qo'lyozmalarning ko'pchiligi sobiq sho'rolar davrida deyarli o'rganilmagan.

Xususan, institut fondlarida saqlanayotgan 6558, 9799/11 hamda 5694, 5203/11 raqamli qo'lyozmalarda xalq veterinariya tabobati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu manbalarda Aristotel tavsiyalariga ko'ra Aleksandr Makedonskiy otlarni tanlashda ularning tashqi tuzilishi, odati va qiliqlariga alohida e'tibor qaratgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, ot kasalliklari, ularni davolash usullari, dorivor o'simliklar, otlarni parvarish qilish hamda yil fasllariga qarab amalga oshiriladigan parvarish usullari haqida yozilgan qo'lyozmalar mavjudligi qayd etiladi.

Aristotelning ushbu qarashlari keyingi davr olimlari tomonidan ham rivojlantirilgan. Xususan, “veterinar-baytar” nomi bilan mashhur bo'lgan olim Abu Bakr al-Munzir al-Baytar (1248-yilda vafot etgan) XIV asrda Misr hukmdori Bahriy sulton an-Nosir Qalovun davrida yashab ijod qilgan. U o'zining “Ot kasalliklarini aniqlash san'ati” hamda “Veterinariya va yilqichilikda davolash san'ati to'g'risida mukammal kitob” asarlarida ushbu masalalarni batafsil yoritgan.

Misrlik olim Abu Baqo Muhammad ibn Isomiddin ad-Damiriy (1344–1405-yillar) ham o'zining “Hayvonlar hayoti” asarida veterinariya va zoologiya sohalariga oid muhim ilmiy ma'lumotlarni bayon etgan. Ushbu asar 1371-yilda yozilgan bo'lib, unda zoologiya faniga oid qimmatli ilmiy ma'lumotlar jamlangan. Asar arab alifbosi tamoyillari asosida tuzilgan bo'lib, unda hayvonlarning nomlari, turlari, hayoti, fe'l-atvori, odatlari hamda xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Muallif o'z asarida ayrim o'quv manbalarida hayvonlar haqidagi noto'g'ri tasavvurlar berilganini tanqid qiladi hamda hayvonlar tasnifini ilmiy asosda arab fonetik tizimi bo'yicha “alif” harfidan boshlanib “ya” harfigacha tartiblab bayon etadi. Shuningdek, qo'lyozmada hayvonlarning biofizik xususiyatlari, ularning inson hayoti bilan bog'liqligi, turli kasalliklari, dori tayyorlash usullari hamda davolash amaliyoti haqida muhim ma'lumotlar beriladi. Muallif qadimgi yunon va Vizantiya olimlarining xalq veterinariyasi bilan bog'liq qarashlariga ham murojaat qiladi.

O'rta asrlarda yashab ijod qilgan olim Al-Jabalning “Kitob al-xayl al-baytari” (“Otlar va veterinariya haqida kitob”) asarida ham veterinariya va otchilikka oid muhim ilmiy fikrlar bayon etilgan. Ushbu asarda hayvonlarni davolash ilmining nozik jihatlari haqida mulohazalar yuritiladi. Biroq muallif o'z asarida veterinariya tarixini yoritishni asosiy maqsad qilib qo'ymaganini ham qayd etish lozim.

Shuningdek, kalom ilmining yirik namoyandasi Shayx Imom Abul Mansur Moturidiy nomi bilan bog'liq “Boznoma” (“Lochin haqida kitob”) asari ham Sharqshunoslik instituti fondlarida 7140, 1280/11 raqamlari bilan saqlanmoqda. Ushbu qo'lyozmada ovchi qushlar, xususan lochinlarning turlari, ularni o'rgatish, parvarish qilish, ulardan foydalanish usullari hamda kasalliklari va davolash usullari haqida ma'lumotlar berilgan.



Bundan tashqari, 2511-raqamli qo'lyozmada "Boznoma" nomi bilan beshta alohida asar mavjud. Ulardan birinchisining muallifi Nizomiddin Ali Marg'iloniy – Farg'oniy hisoblanadi. Ikkinchi "Boznoma" asari esa Boburiylar sulolasidan bo'lgan Akbarshoh (1556–1605-yillar) saroyida xizmat qilgan Sher Muhammad tomonidan yozilgan. Qolgan uchta "Boznoma" asarining mualliflari Ahmad Hoji Tarxon, Sher Muhammad hamda muallifi noma'lum bo'lgan shaxs hisoblanadi.

"Boznoma" nomi bilan mashhur bo'lgan asarlarda mualliflar bevosita o'rganilayotgan ilmiy mavzu haqida yozishni asosiy maqsad qilib qo'ymagan bo'lsalar-da, o'rta asrlarda o'lkada keng qo'llanilgan ovchi qushlar — lochin, qirg'iy, shunqor va boshqa qushlardan foydalanish, ularni saqlash, ovga o'rgatish, xulq-atvori hamda o'ziga xos belgilarini tavsiflash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Shuningdek, ushbu manbalarda ovchi qushlarni ko'paytirish usullari, ularda uchraydigan kasalliklar, kasallik alomatlari, davolash usullari hamda dorivor o'simliklar, ayrim hayvon mahsulotlari va boshqa davolash vositalari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

O'lkada xalq veterinariya tabobati muammolari haqida XVIII–XIX-asrlarga oid bir qator qo'lyozma manbalarda ham qimmatli tarixiy ma'lumotlar uchraydi. Ushbu qo'lyozmalarda chorva va parrandalarning turlari, ularda uchraydigan turli kasalliklar hamda ularni davolashda xalq tabobati asosida veterinariya xizmatidan foydalanish darajasi haqida muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Bunday noyob qo'lyozmalar turkumiga "Ajoyib al-maxluqot va g'aroyib al-mavjudot", "Qushlar muolajasi tartibi haqida", shuningdek Ali ibn Muhammad Ali ibn Mahmud al-Xorazmiy al-Kubraviy qalamiga mansub "Ov xususida kitob" kabi asarlar kiradi. Mazkur qo'lyozmalar veterinariya tarixini o'rganishda muhim manbaviy ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, yuqorida tilga olingan qo'lyozma asarlar va ularning mualliflari, shuningdek ushbu asarlarni yunon, sanskrit (qadimgi hind tili) hamda arab tillaridan tarjima qilgan yoki arab va fors tillarida ko'chirgan hattotlar haqida hozirgi vaqtgacha yetarli darajada ilmiy izlanishlar olib borilmaganini ham qayd etish lozim. Demak, ushbu qo'lyozmalarni chuqur va kompleks o'rganish kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston xalq veterinariya tabobati tarixini o'rganishda o'rta asrlarda yashab ijod qilgan yirik Sharq olimlarining asarlaridan ham keng foydalanish mumkin. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" hamda Abu Rayhon Beruniyning bir qator asarlarida xalq veterinariya tabobati tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Buyuk ensiklopedist olim Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari nafaqat inson kasalliklari, ularni davolash usullari, dorivor o'simliklar va dori tayyorlash yo'llari haqida, balki hayvonlar salomatligi, xalq tabobati hamda veterinariya xizmatiga oid qimmatli tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi. Jumladan, "Tib qonunlari" asarining birinchi kitobidagi "Ikkinchi fan" bo'limining uchinchi ta'lim bobida "Kasallik belgilarining paydo bo'lishi haqida" hamda ushbu kitobning "Ikkinchi jumla" qismidagi o'n birinchi faslda "Hayvonlar siydigi va uning odam siydigidan farqi haqida" kabi boblarda kasalliklarni aniqlash va davolash masalalari ilmiy asosda bayon etilgan.

Shuningdek, Ibn Sino "Hayvonlar" nomli asarida to'rt oyoqli hayvonlarning sog'ligi, mahsulot sifati, inson hayotidagi ahamiyati, hayvon turlarining o'zaro farqlari, kasalliklari, davolash usullari, semirtirish hamda ularning chidamliligi haqida ko'plab foydali ma'lumotlar keltiradi.

Mashhur ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniyning asarlarida ham xalq veterinariya tabobati tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, uning besh kitobdan iborat "Qonuni Ma'sudiy" asarida turli ilmiy qonuniyatlar, kategoriyalar va nazariy tamoyillar bayon etilgan bo'lsa, "Kitob as-saydana fi-t-tibb" ("Saydana") asari o'rta asr dorishunosligining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarda dorivor o'simliklar, dori vositalari va ularni qo'llash usullari haqida muhim ma'lumotlar berilgan bo'lib, ular chorvachilik va xalq veterinariya tabobati uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zikr etilgan manbalarni o'rganish asosida shunday xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston hududida boshqa ilmiy sohalar qatori veterinariya ham qadimiy ildiz va boy ilmiy an'analarga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududida chorvachilik va veterinariya faoliyati qadimiy tarixiy ildizlarga ega bo'lib, u xalqning xo'jalik faoliyati va turmush tarzining muhim qismi sifatida shakllangan. Tarixiy manbalar, jumladan "Avesto", o'rta asr qo'lyozmalari hamda Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi chorvachilik va hayvonlarni davolash bilan bog'liq bilimlar qadim zamonlardan boshlab mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalq veterinariya tabobati an'analari nafaqat amaliy tajribaga, balki dorivor o'simliklar, hayvon kasalliklarini aniqlash va davolash usullariga oid ilmiy qarashlarga ham asoslangan.

Shuningdek, Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan ko'plab qo'lyozma manbalar xalq veterinariya tabobati tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq ushbu qo'lyozmalar hozirgi kunga qadar yetarli darajada tadqiq etilmagan.



Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq: birinchidan, xalq veterinariya tabobati tarixiga oid qo'lyozma manbalarni tizimli ravishda ilmiy tadqiq qilish va ularni ilmiy muomalaga kiritish; ikkinchidan, veterinariya sohasi bo'yicha tarixiy manbalarni raqamlashtirish va ilmiy jamoatchilikka taqdim etish; uchinchidan, veterinariya ta'limi jarayonida xalq veterinariya tabobati tarixiga oid bilimlarni o'quv dasturlariga kiritish zarur. Mazkur chora-tadbirlar milliy ilmiy merosni o'rganish va veterinariya sohasining tarixiy rivojlanishini yanada chuqurroq tadqiq etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1998. – B. 24.
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. V–VIII jildlar, 1-kitob. – Toshkent: "Fan", 1983; Hikmatlar. – Toshkent: "O'zbekiston", 1980; O'gitlar. – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1980.
4. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Ma'sudiy. I–V kitoblar. Tanlangan asarlar, 5-jild. – Toshkent: "Fan", 1973; Farmakognoziya (Saydana). Tanlangan asarlar, IV jild. – Toshkent: "Fan", 1974.
5. Abu Rayhon Beruniy. Farmakognoziya (Saydana). Tanlangan asarlar, V jild. – Toshkent: "Fan", 1974; Qonuni Ma'sudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Fan", 1973.
6. Abdolnizozov B. "Avesto" va qishloq xo'jaligi. // "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali, 2000, № 6. – B. 19.
7. "Avesto". "Muta kitobi". – Toshkent, 2001. – B. 37. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar bo'limi: 6558, 9799/11 raqamli qo'lyozmalar, 7116, 10886 raqamli papkalar.
8. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondi. 6558–9799/11 raqamli qo'lyozma. (SVR AN Uz., VIII tom, 114-bet).
9. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondi. 5694–5203/B raqamli qo'lyozma. (SVR AN Uz., VIII tom, 114-bet).
10. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondi. 7116–10886 raqamli qo'lyozma. (SVR AN Uz., XI tom).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100